ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TILSHUNOSLIKDA DISLEKSIYA VA DISGRAFIYANING NEYROLINGVISTIK VA PSIXOLINGVISTIK TADQIQI MASALALARI

Ko'chiyeva Shabnam Isomiddin qizi,
Termiz davlat universiteti
Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

O'qish va yozish insonning ijtimoiy va akademik faoliyatida muhim o'rin tutadi. Biroq ba'zi shaxslarda aqliy rivojlanishi normal bo'lishiga qaramay, o'qish va yozish jarayonida doimiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu hodisalar disleksiya va disgrafiya deb ataladi. Disleksiya – o'qish qobiliyatining nevrologik asosli buzilishi bo'lib, shaxsning so'zlarni tanish, o'qish va tushunish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi bilan namoyon bo'ladi. Disgrafiya esa yozish qobiliyatining buzilishi bo'lib, harflar va so'zlarni yozishda xatoliklar bilan tavsiflanadi. Disleksiyaning o'ziga xos asosiy belgilari sifatida so'zlarni teskari o'qish yoki harflarni almashtirish; o'qishda sekinlik, xatoliklar ko'p bo'lishi; yozuvda harf va so'zlarni noto'g'ri yozish (disgrafiya bilan bog'liq); ba'zida esa o'qilgan matnni tushunishda qiyinchiliklar kabilarni kiritamiz. Disgrafiyali bolalarning umumiy xususiyati shundaki, ularga yetarlicha ko'rsatmalar va mashqlar beerilgan taqdirda ham, ular yozuvning mayda motorik ko'nikmasini yetarlicha tez o'zlashtira olmaydi. Eng ko'p uchraydigan shikoyat esa, yozuv sifatining pastligi hisoblanadi. Ya'ni ular barqaror va sifatli yozuv hosil qila olmaydi[1].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida disgrafiya tushunchasi ilk bor paydo bo'ldi. Ma'lum bir ilmiy jamoa tomonidan disgrafiya yozuvdagi xatolar sifatida baholangan va ular buni maktab yetishmovchiligi yoki beparvolik bilan bog'liq deb izohlashgan. Disleksiya esa dastlab tibbiyot sohasi vakillari (nevrolog, oftalmolog) tomonidan o'rganila boshlangan. 1800-yillar oxirida nemis nevrologi Adolf Kussmaul "Nutq buzilishi" nomli asarida disleksiyani "so'z ko'rligi" (wortblindheit) deb nomladi[2]. Bu disleksiya tushunchasining ilmiy tarixida dastlabki bosqich sifatida baholanadi. A. Kussmaul ushbu asarida "so'z ko'rligi" tushunchasini ilgari surib, aqliy rivoji normal bo'lgan shaxslarda so'zlarni tanish va o'qish jarayonidagi doimiy qiyinchiliklarni ilmiy jihatdan tasvirlagan. U bu holatni intellektual zaiflik bilan bog'lamaslik, balki nevrologik va tilni idrok etish bilan bog'liq mustaqil buzilish sifatida ko'rib chiqish kerakligini ta'kidlagan[3].

A.Kussmauldan so'ng bu tadqiqotni nemis oftalmologi (ko'z shifokori, ya'ni ko'rish a'zolari kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish bilan shug'ullanuvchi tibbiyot mutaxassisi) Rudolf Berlin 1887-yilda ilk bor "disleksiya" termini qo'llagan. Unga ko'ra disleksiya yunoncha "dys" – "kasal" yoki "qiyin" va "leksis"- "so'z" so'zlarining birikuvidan tashkil topgan bo'lib, "so'zlar bilan qiyinchilik" degan ma'noni bildiradi.

1896-yil shifokor Uiyam Pringl Morgan tomonidan "Tug'ma so'z ko'rligining buzilishi"("A case of congenital word Blindness") nomli maqola orqali disleksiya haqidagi ilk yirik ilmiy maqola chop etildi. Ushbu maqolada W.P.Morgan 14 yoshli Persy F. ismli bola misolida o'qishda jiddiy qiyinchilikka uchragan bolani tasvirlab bergan. Bolada intellektual qobiliyatlar normal, lekin u so'zlarni o'qishni o'rganishda juda katta muammo bilan duch kelayotganligini qayd etgan. Uning ko'zlari sog'lom bo'lib, ko'rish bilan bog'liq hech qanday aniq shikastlanish yo'qligini ta'kidlagan[4]. Keyinchalik bu ish oftalmolog Jeyms Xinshelvud va Jeyms Kerrlar tomonidan o'rganishda davom etildi. J. Xinshelvud tadqiqotlariga ko'ra, disleksiyaning paydo bo'lishi ikki xil yo'l bilan tavsiflanadi. Birinchisi to'satdan balog'at yoshida paydo bo'ladi, ikkinchisi tug'ilishda paydo bo'ladi deb xulosalaydi. Shunday ekan, birinchi yo'l miya shikastlanishidan kelib chiqadi va u orttirilgan disleksiya, ikkinchisi esa irsiy bo'lib, rivojlangan yoki tug'ma disleksiya hisoblanadi. J. Xinshelvud tug'ma disleksiyani miya shikastlanishi bilan bog'laydi, bu esa harf va so'zlarni xotirada saqlash va eslash qobiliyatining buzilishiga olib kelishini aytib o'tgan[5].

[1] Karlsdottir R., Stefansson T. Problems in developing functional handwriting //Perceptual and Motor Skills.-2002.
[2] Kussmaul A. Die Storungen der Sprache. –Leipzig: Verlag Von F. C. W. Vogel, 1877.
[3] Kussmaul A. O'sha manba.
[4] Morgan W.P. A case of congenital word blindness. – Britania: British Medical Journal, 1896.
[5] Hinshelwood J. Congenital Word Blindness, 1917.

1900-yillarga kelib disleksiya o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi degan xulosaga kelindi. 1920-1930-yillarga kelib psixolingvist Samuel Torrey Orton disleksiyani "strefosimboliya" ya'ni (buzilgan belgilar) deb nomlashni lozim topdi[1]. S.T. Orton ilk bor disleksiyani tibbiy sohadan ta'lim sohasiga o'tkazib o'rganishni boshlab berdi. Unga ko'ra muammo "so'z ko'rligi"da emas, balki ko'z orqali qabul qilingan ma'lumotning ongda paydo bo'ladigan birlamchi tasviri ya'ni vizual taassurotlari harflar va so'zlarni qabul qilish jarayonida "buzilgan"dir. Bu davrga kelib, bolalarda yozuvdagi qiyinchiliklarni nevrologik va psixologik nuqtai nazardan o'rganishga kirishildi. Bu esa o'z navbatida Aleksandr Romanovich Luria nomi bilan bog'liq. U o'zining "Очерки психофизиологии письма" (Ocherki psikhofiziologii pis'ma) asari orqali yozuvning psixofiziologik asoslarini va yozish jarayonidagi tizimli mexanizmlarni tahlil qiladi. Yozuv faoliyatining strukturasini chizish, qo'l harakatlari, fonologik tahlil va boshqa funksiyalar haqida ma'lumot beradi. Ya'ni bugungi kundagi disgrafiya tushunchasiga asos soluvchi asosiy materiallar haqida xabar beradi.

A.R. Luriya bu borada turli neyropsixologik tadqiqotlar olib boradi va bolaning yozuvdagi xatolarini miya faoliyati bilan bog'laydi. U yozuv faoliyatini oddiy motor harakatlaridan ko'ra murakkab kognitiv tizim deb bilgan, yozish jarayoniga eshitish, ko'rish, motor koordinatsiya, grammatika va leksik tahlil kabi bir necha psixik funksiyalar o'zaro bog'liq tizim sifatida deb qaragan[2]. Bu yondashuv disgrafiya tadqiqotlarining neyropsixologik asosidir.

Oradagi ma'lum muddatli tanaffusdan so'ng 1960-yildan boshlab disleksiya va disgrafiyaga oid tadqiqotlar psixologlar tomonidan o'rganila boshlandi. 1965-yilga kelib Helmer R. Myklebust disgrafiya va o'qish qobiliyatining rivojlanishi haqida muhim tadqiqotlar qilgan olimlardan biri bo'lib, u yozish bilan bog'liq nutq va yozuv buzilishlari bo'yicha ilmiy asar yaratdi. H. R. Myklebust yozuv va nutq buzilishlarini kognitiv nuqtai nazardan o'rgangan. U disgrafiyani faqat motor yoki harakat muammosi deb emas, balki simvolik tizim muammosi deb, ya'ni miyaning so'z tasvirini yozishga qayta uzatish jarayonidagi mantiqiy buzilishlar deya ta'riflaydi[3]. Shu davrgacha yozilgan ilk yirik tadqiqot ishi 1972- yilda Sandhya Naidoo tomonidan yaratilgan. "Maxsus disleksiya" deb nomlanuvchi bu kitob nevrolog Kritchli Makdonaldning "Disleksiyali bola" nomli kitobi bilan birgalikda nashr etildi va yuqori natijaga erishdi. 1962-yilga kelib, nevrolog Tim Miles tomonidan "So'z ko'rligi" markazi ochildi. Ushbu markazda disleksiyali shaxslar bilan ishlagan tadqiqotchilar jamlangan edi. Ammo 1970-yilga kelib markaz noma'lum sabablarga ko'ra yopildi. Bu esa boshqa markazlarning ochilishiga va faoliyat yuritishiga turtki bo'ldi. Bu kabi markazlardan ba'zilarining faoliyati hozirga qadar davom etmoqda.

1970-1980 yillar oralig'ida disleksiya bo'yicha tadqiqot olib borgan olim sifatida britaniyalik psixolog Tomas Richard Milesni keltirib o'tamiz. T. Miles asosan disleksiya bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lsa-da, disgrafiya bilan bog'liq ishlarni ham shu kontekstda yoritib o'tgan. U disleksiyani nevropsixologik sindrom sifatida tahlilgan. Yozuv buzilishlari borasida Luriya va Orton nazariyalarini davom ettirib, ularni kognitiv va nevrologik jihatdan tahlil qilgan. Olim yozuv jarayonini til, grammatika, fonologiya, vizual tizim va motor koordinatsiyasi komponentlari bilan bog'laydi va disgrafiyani faqat motor yoki pedagogik nuqson emas, balki murakkab kognitiv sindrom sifatida tasniflaydi. Yozishdagi xatolarni psixologik va nevrologik jarayonlar jarayonlar bilan izohlashga alohida urg'u beradi. U bolalarning yozuvdagi buzilishlarini analiz qilish orqali individual pedagogik yondashuvni ishlab chiqdi, bolalar yozuv qobiliyatini yaxshilash borasida pedagog va nevropsixologlar uchun maxsus mashq va treninglar ishlab chiqdi. Shuningdek, yozuvdagi xatolarni diagnostika qilish metodikasini tizimlashtirdi. T. Miles Luriyaning nevropsixologik yondashuvi va Ortonning pedagogic yondashuvi konseptlarini birlashtirgan holda yozish buzilishlarini zamonaviy tahlil va reabilitatsiya nuqtai nazaridan tahlil qilib o'rgandi.

XXI asrga kelib, disgrafiyaga kasallik sifatida emas, balki o'rganish buzilishi yoki neyrokognitiv xususiyat sifatida qaraldi va bolalarni o'qitishda individual yondashuv asosiy prinsipga aylandi. Disgrafiyali yozuvning asosiy xususiyatlarii sifatida yozuvda bir xillikning yo'qligi va yozuvdagi muammolar asosan motorik (harakat) tabiatga ega ekanligini keltiriladi. Ya'ni bolaning yozuvi barqaror emas, harflar shakli, o'lchami, egri chiziqlar yoki harkatlar trayektoriyasi doimiy bo'lmaydi. Masalan, bir so'zda yoki bir satrdagi "a" harfi bir xil bo'lmaydi, harflar o'lchami farqlanadi, yozuv egri va notekis bo'ladi. Bolaning qo'l harakati koordinatsiyasi va nazorati yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Ya'ni bola yaxshi biladi va e'tibor qiladi, lekin qo'lning motorik tizimi hali to'liq nazoratni amalga oshira olmaydi[4].

XXI asrning boshlaridan e'tiboran disleksiya kog-

[1] Orton S.T. Specific reading disability – Stephosymbolia.- Journal of the American Medical Association, 1928.

[2] Лурия, Александр Романович. Очерки психофизиологии письма / Акад. пед. наук РСФСР, Ин-т психологии. – Москва : Изд-во Акад. пед. наук РСФСР, 1950.

[3] Myklebust Helmer. R. Development and Disorders of Written Language. – Grune&Stratton, 1965.

[4] Karlsdottir R., Stefansson T. Problems in developing functional handwriting //Perceptual and Motor Skills.-2002.

nitiv buzilishlardan kelib chiqishi mumkinligi taxmin etila boshlandi. 2020-yilga kelib esa disleksiyaning kuchli irsiylik xususiyatiga ega bo'lgan nutq buzilishi ekanligi tasdiqlangan. Bu borada S.Shaywitz, J.Gabrieli, J.Koifman kabi olimlar izlanish va tadqiqot olib borgan va o'z munosabatlarini bildirib, turli tahlillarni amalga oshirgan.

Hozirgi kunga kelib disleksiya va disgrafiyaga kasallik emas, balki har bir bolaning yozuv va nutq qobiliyatidagi individual o'ziga xos xususiyat sifatida baholanadi. Uni davolashdan ko'ra, adaptiv pedagogik yondashuv va texnologik yordam asosiy strategiya hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda disleksiya va disgrafiyaga oid bo'lgan zamonaviy tadqiqotlar nevropsixologiya, pedagogika va texnologiya sohalari kesishmasida birgalikda olib borilmoqda.

Rezyume. Ushbu maqolada disleksiya va disgrafiya hodisalarining psixolingvistik hamda neyrolingvistik jihatlari tahlil qilingan. Ularning o'rganilish tarixi haqida davrlar kesimida ma'lumotlar berilgan. Olimlarning fikrlari va qarashlari asoslab berilgan. Disleksiya termini, uning kelib chiqishi, turli xil nomlanishiga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Resume. This article analyzes the psycholinguistic and neurolinguistic aspects of dyslexia and dysgraphia. The historical development of these phenomena is presented across different periods. The views and opinions of prominent scholars are substantiated. Information on the term "dyslexia," its origin, and various denominations is provided.

Резюме. В данной статье анализируются психолингвистические и нейролингвистические аспекты дислексии и дисграфии. Представлены сведения об истории изучения этих явлений в разрезе различных периодов. Обоснованы мнения и позиции известных учёных. Приведена информация о термине «дислексия», его происхождении и различных наименованиях.